



MUSIQA NAZARIYASI VA SOLFEDJIO DARSLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Musiqqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19480712>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-aprel 2026 yil

Ma’qullandi: 06- aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 09- aprel 2026 yil

KEY WORDS

musiqqa ta’limi, musiqqa nazariyasi, solfedjio, musiqiy savodxonlik, eshitish qobiliyati, ijrochilik, metodika, musiqqa maktabi.

ABSTRACT

Bolalar musiqqa va san’at maktablarida o’qitiladigan musiqqa nazariyasi va solfedjio fanlarining musiqqa ta’lim tizimidagi o’rni va ahamiyati yoritilib, mazkur fanlarning o’quvchilarda musiqiy savodxonlikni shakllantirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy tafakkur va ijrochilik malakalarini takomillashtirishdagi roli tahlil qilingan.

Bolalar musiqqa va san’at maktablarida musiqqa nazariyasi va solfedjio fanlari o’quvchilarga musiqiy savodxonlikning asoslarini o’rgatadi, ularning musiqani ongli idrok etish, eshitish orqali tahlil qilish, ritm va ladni his etish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu fanlar ijrochilik yo’nalishidagi barcha mutaxassisliklar uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Biroq amaliy tajriba shuni ko’rsatadiki, mazkur fanlarni o’qitish jarayonida o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, qiziqishlari hamda individual imkoniyatlari har doim ham yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada nazariy bilimlarni o’zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelib, fanlarga bo’lgan qiziqish pasayishi mumkin.

Hozirgi kunda Bolalar musiqqa va san’at maktablarida ta’lim mazmunini yangilash, o’qitish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy o’qitish usullari bilan bir qatorda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarini samarali shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, musiqqa nazariyasi va solfedjio darslarida nazariy bilimlarni amaliy mashg’ulotlar bilan uyg’unlashtirish, eshitish orqali tahlil qilish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo’naltirilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. O’zbekistonda musiqqa ta’limining rivojlanishi, xususan solfedjio fanining o’qitilishi bo’yicha yaratilgan ilmiy-pedagogik manbalar tadqiqotning nazariy asosini tashkil etdi. Jumladan, N. Rajabova, O. Azizov, I. Hamroyev, A. Qodirov, M. Hakimov, N. Xudoyberganova, Z. Karimova kabi olimlarning ishlari musiqqa savodi, solfedjio va qo’shiqchilikni o’qitishning nazariy hamda metodik jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Orifjon Ashirovich Azizovning 2007-yilda nashr ettirilgan “Solfedjio” nomli (ko’p ovozli) o’quv qo’llanmasi o’quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarini o’zlashtirish va ko’p

ovozli kuylash malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda amaliy metodik manba sifatida tahlil qilindi [1].

I. Hamroyevning "Solfedjio" qo'llanmasida kuylash malakalarining o'ziga xos jihatlari keng yoritilgan bo'lib, u vokal-ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlarini o'rganishda asos bo'ldi [2].

Shuningdek, N. Rajabovaning "Solfedjio" darsligi (2000-yilgi nashrning qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri) o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari hamda bastakorlar asarlari asosida tuzilganligi bilan ajralib turadi va turli bosqichdagi musiqa ta'lim muassasalari uchun mos metodik material sifatida o'rganildi [6].

S. Matyoqubovning "Solfedjio darslarida ritm mashqlari" qo'llanmasi esa ritmik ko'nikmalarni shakllantirish metodikasini o'rganishda muhim manba sifatida foydalanildi [4].

Rus musiqashunos olimlari tomonidan yaratilgan N. Laduhinning "Bir ovozli solfedjio" qo'llanmasi [3], A. L. Ostrovskiy, S. N. Solovev, V. P. Shokinlarning "Solfedjio" qo'llanmasi [5], hamda I. V. Sposobinning 2 va 3 ovozli solfedjio bo'yicha ishlari [7] ko'p ovozli eshitish va kuylash malakalarini rivojlantirish metodikasini tahlil qilishda qo'llanildi.

Musiqa nazariyasi fanini o'qitish jarayonini tadqiq etishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilarda musiqiy tafakkur, nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning samarali usullari aniqlashtirildi.

Musiqa nazariyasini o'qitishda o'zbek milliy musiqa merosiga tayanish muhim metodologik tamoyil sifatida qaraldi. Bu borada o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari va bastakorlar asarlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda musiqiy eshituv, tahlil qilish va ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganildi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga xizmat qiladi.

Musiqa ta'limi jarayoni, xususan, bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio fanlarini o'qitish, yosh avlodning musiqiy tafakkurini rivojlantirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda o'rganilgan metodologik yondashuvlar va pedagogik xususiyatlar shuni ko'rsatadiki, musiqa nazariyasi va solfedjio fanlarining samarali o'qitilishi, o'quvchilarda musiqiy idrok, tahlil qilish va ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio fanlari o'quvchilarning musiqa olamiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ular musiqaning asosiy tamoyillarini o'rganishga va shu asosda ijodiy faoliyat yuritishga yo'naltirilgan.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy musiqa pedagogikasi o'qituvchidan darslarni qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etishni, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan metodlardan foydalanishni talab etadi. Shu bois musiqa nazariyasi va solfedjio darslarini tashkil etishning samarali metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish masalalarini chuqur ilmiy-pedagogik tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Musiqqa ta'limi, xususan bolalar musiqqa va san'at maktablaridagi o'quv jarayoni, nafaqat san'atni o'rgatish, balki o'quvchilarning intellektual, hissiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompleks tizim sifatida shakllangan. Musiqqa nazariyasi va solfedjio fanlari esa ushbu tizimning markaziy elementlari bo'lib, o'quvchining nafaqat amaliy ijro ko'nikmalarini, balki musiqqa tilini tushunish, eshitish va yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, musiqqa nazariyasi va solfedjio darslari bolalar musiqqa ta'limi jarayonida alohida o'rin egallaydi.

Musiqqa nazariyasi – bu, musiqqa san'ati va amaliy ijro jarayonini ilmiy asosda o'rganish bo'lib, uning tarkibiy elementlarini (tovush, nota, ritm, tonallik, ladlar, akkordlar) tizimli ravishda tushuntiradi. Musiqqa nazariyasi orqali o'quvchilar musiqqa asarlarini tahlil qilish, yozuvini o'qish va mustaqil ijro etish qobiliyatini egallaydi [8].

Solfedjio esa musiqqa tilini amaliy qo'llashni o'rgatadigan fan bo'lib, u tovushlarni tinglab aniqlash, kuylash, ritmik va melodik mashqlar orqali o'quvchining eshitish, kuylash va yozib olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Solfedjio mashqlari, odatda, musiqqa nazariyasi bilan uyg'un olib boriladi, chunki u nazariy bilimni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Shu sababli, bolalar musiqqa va san'at maktablarida solfedjio va musiqqa nazariyasi bir-birini to'ldiruvchi fanlar sifatida qaraladi.

Bolalar musiqqa va san'at maktablarida musiqqa nazariyasi va solfedjio darslarining asosiy o'ziga xosligi ularning pedagogik yondashuvi va yosh xususiyatlariga moslashtirilganligida namoyon bo'ladi. Bu maktablar boshlang'ich va o'rta ta'lim darajasida ishlashini inobatga olgan holda, darslar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. **Yoshga moslashtirilgan pedagogik yondashuv** – darslar bolalarning psixologik xususiyatlari, diqqatni jamlash qobiliyati va ijodiy faoliyat darajasiga mos ravishda tuziladi. Masalan, boshlang'ich sinflarda ritm va notalarni kuylash mashqlari o'yin shaklida beriladi, bu esa bolalarda qiziqish va motivatsiyani oshiradi.

2. **Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish** – solfedjio darslarida o'quvchilar nafaqat nazariy bilim egallaydi, balki eshitish va kuylash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu o'zaro uyg'unlik ularning musiqqa savodxonligini tez va samarali shakllantirishga yordam beradi.

3. **Individual va guruh mashg'ulotlarining uyg'unligi** – bolalar musiqqa maktablarida darslar ko'pincha kichik guruhlarda olib boriladi, shuningdek individual mashg'ulotlar ham bo'ladi. Bu o'quvchining qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishga imkon yaratadi, xatoliklar tez aniqlanadi va tuzatish imkoniyati mavjud bo'ladi.

4. **Ijodiy fikrlashni rivojlantirish** – solfedjio mashqlari orqali bolalar notalarni kuylash bilan birga o'z ijodiy qarorlarini ham amalga oshiradi. Masalan, berilgan tonallikda qisqa melodik frazalarni yaratish, ritmik kombinatsiyalar bilan tajriba o'tkazish bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

5. **Tinglab aniqlash ko'nikmalari** – solfedjio darslari bolalarda tinglab aniqlash va ovoyni xotirada saqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar kelajakda professional musiqqa faoliyatida zarur hisoblanadi, shuningdek, musiqqa asarlarini tahlil qilish va ijro etishda mustahkam poydevor yaratadi.

Xulosa qilib aytganda bolalar musiqqa va san'at maktablaridagi musiqqa nazariyasi va solfedjio darslari o'ziga xos pedagogik va metodik jihatlari bilan ajralib turadi. Ular nafaqat musiqqa tilini o'rgatadi, balki bolalarning tinglab aniqlash, ijro, yozib olish va ijodiy

qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu fanlar musiqa ta'lim tizimidagi muhim ahamiyatini saqlab, o'quvchilarni kelajakdagi professional va ijodiy faoliyatga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizov O. Solfedjio. – T., 2007
2. Hamroyev I. Solfedjio. – T., 1977.
3. Ладухин Н. “Одноголосное солфеджио. - М., 1998г 147 с.
4. Matyuqubova S Solfedjio darslarida ritm mashqlar. - T., 2009.
5. Ostrovskiy A.L., Solovev S.N., Shokin V.P. Solfedjio. - M., 2013
6. Rajabova N. Solfedjio. – T.: Sharq, 2004. 176 b.
7. Sposobin I.V. 2-,3-golosie. - M., 2009.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki>

